

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOV FARRUX SOIBOVICH

**ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA TURKISTON
MINTAQASIDAGI QOCHOQLAR: TARIXIY TAHLIL
(XIX asr oxiri – XX asr boshlari)**

07. 00. 01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Saidov Farrux Soibovich

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston mintaqasidagi qochoqlar:
tarixiy tahlil (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)..... 5

Сайдов Фаррух Соивович

Беженцы в Туркестанском крае в период правления Российской империи:
Исторический анализ (конец XIX – начало XX века)..... 27

Saidov Farrukh Soibovich

Refugees in the Turkestan region during the rule of the Russian Empire:
a historical analysis (end of the 19th century – beginning of the 20th century) 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 57

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOV FARRUX SOIBOVICH

**ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA TURKISTON
MINTAQASIDAGI QOCHOQLAR: TARIXIY TAHLIL
(XIX asr oxiri – XX asr boshlari)**

07. 00. 01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1241-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshi.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Xaitov Shadmon Ahmadovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'afforov Shokir Safarovich
tarix fanlari doktori, professor

Xolmo'minov Xusan Eshmo'minovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" soyat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi
(2025-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

Y.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda bugungi kunda globallashuv tendensiyalari ta'sirida millatlararo, davlatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlariga, o'tmishda xalqlarning o'zaro ta'sirini o'rganish va yonma-yon istiqomat qiluvchi xalqlarning o'zaro madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, madaniyatlararo ta'sir masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Lekin shular qatorida har bir xalq va millatning o'z taraqqiyot yo'li, o'ziga xosligi, asrlar davomida turmush sharoitlari, urf-odat va an'analarini saqlayatganligi hamda bugungi globallashuv sharoitida moziyga murojaat, o'zlikni anglash tushunchalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Dunyo mamlakatlari duch kelayotgan hozirgi zamonning eng jiddiy muammolaridan biri qochoqlar va boshqa majburiy ko'chirilganlar masalasidir. Bugungi kunda butun dunyo bo'yicha majburiy ko'chirilgan va qochoq insonlar soni 80 milliondan oshdi. "Qochoqlar maqomi to'g'risida"gi konvensiya qabul qilinganiga 70 yildan oshdi. Uzoq yillar mobaynida dunyoning barcha mamlakatlarida qochoqlar huquqlarini ta'minlash muammosini hal qilish bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy-amaliy izlanishlarni amalga oshirmoqda. Natijada, odamlar o'z tug'ilgan mamlakatlarini urushlar, tabiiy ofatlar, madaniy va siyosiy zulmdan qutulish uchun tark etganligi borasida bir qator ma'lumotlar olindi. Lekin Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagi Turkiston mintaqasida qochoqlarning tarixi, ularning milliy-etnik tarkibi, ijtimoiy holati kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Yangi O'zbekistonda turli bosqichlarda kechgan tarixiy jarayonlarni o'rganish va xolisona tahlil qilish ustuvor bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda "Odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini mutlaqo o'tab bo'lgan o'tmish qoldiqlari bekor qilindi. Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotlarimiz faollashib bormoqda"¹. Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo'limgan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig'iga javoban 50 ming nafardan ortiq yurtdoshimizga O'zbekiston fuqaroligi berildi. "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash biz uchun doimiy muhim vazifadir. Jahonning turli nuqtalarida notinchlik saqlanib qolayotgani, ziddiyat va zo'ravonliklar ortib borayotgani, ekologik ofatlar va boshqa zamonaviy xatarlar qashshoqlik va kambag'allikning global muammolarini kuchaytirmoqda. Bu muammolar, ayniqsa, pandemiya tufayli keskin tus oldi. Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilishi zarur"², – deb ta'kidlaydi prezidentimiz.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>. Murojaat vaqt: 2023-yil 15-avgust.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблейсининг 75-сессиясида сўзлаган нутки // Янги Ўзбекистон. 2020 йил 23-сентябрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-maydagi PQ-2993-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-sonli “O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va mavzuga oid boshqa huquqiy-me’yoriy hujjalarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yunalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Turkiston mintaqasidagi qochoqlar tarixi masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni, asar va maqolalarni xususiyatiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida e’lon qilingan ishlar.
2. Sovet davriga oid nashrlar.
3. Mustaqillik yillarida yozilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda chop etilgan asarlar.

Birinchi guruhga A. Middendorf, A. Ivanov, V.I. Masalskiy, L.A. Isayeva, S.M. Gramenitskiy, A.I. Shaxnazarov, N.P. Ostroumov, V.I. Kushelevskiy, K.P. Kaufman, N.P. Ostroumova, N.Turchaninov, A.A.Kaufman, K.K. Abaza, M.A. Terentyev, A. Glebov, A.N. Komarov, V.P. Voshinin, Ye.A. Yashnovlarning asarlarini kiritish mumkin³. Tahlil etilayotgan adabiyotlarning birinchi guruhi o‘rganilar ekan, ular, asosan, mustamlakachilik ruhida yozilgan asarlar ekanligi ko‘zga tashlanadi.

³ Миддендорф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882; Он же Фергана. – СПб., 1892; Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае. – СПб., 1890; Масальский В.И. Хлопковое деле в Средней Азии. – СПб., 1892; Исаева Л.А. Переселения в русском народном хозяйстве. – СПб., 1891; Граменицкий С.М. Очерки развития народного образования в Туркестанском крае. – Ташкент, 1886; Шахназаров А.И. Очерки сельского хозяйства в Туркестанского края. – Санкт-Петербург; 1888; Остроумов Н.П. Сарты этнографические материалы (общий очерк). – Ташкент, 1890; Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Т.1. – Новый Маргелань. 1890; Он же. К истории народного образования в Туркестанском крае. К.П. Кауфман устроитель Туркестанского края. Личные воспоминания Н.П. Остроумова (1877-1881 гг.). – Ташкент, 1899; Турчанинов.Н. Итоги переселенческого движения за время с 1896 по 1909 гг. – Спб., 1910; Кауфман А.А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. – СПб., 1903; Он же. Мечты и действительность. –Москва, 1906; Абаза К.К. Завоевание Туркестана. Рассказ из военной истории: очерки природы быта и правов в общедоступном изложении. – СПб., 1902; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии.Т I. – СПб., 1906; Глебов А. Что могут дать переселения крестьянству. –СПб., 1917; Комаров А.Н. Правда о переселенческом дело. – СПб., 1919; Вошинин В.П. Очерки нового Туркестана свет и тени колонизации. – СПб., 1914; Труды III съезда деятелей сельскому хозяйству Туркестанского края (под. ред. Р.Р. Шредера и. П.К. Квитки). – Ташкент, 1914; Яшнов С. Колонизация Туркестана за последние годы.// Вопросы колонизации., 1916. – №18. – С. 18-23.

Ikkinchı guruhga sovet hokimiyyati yillarida chop etilgan N.I. Maloxovskiy, G.I. Safarov, V.P. Voshinin, P.G. Galuz, M. Cho'qay, A.P. Fomchenko kabilarning ishlarini kiritish mumkin⁴. Rossiya imperiyasining Turkistonda va Buxoro amirligida amalga oshirilgan aholini ko'chirish jarayoni orqali kelgan qochoqlar siyosatini o'rgangan A.P. Fomchenko⁵ o'z tadqiqotida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida metropoliyadan Turkistonga qochoqlar miqyosini ko'payishiga qaratilgan hatti-harakatlar sabablarini tahlil etgan.

Mustaqillik yillarida chop etilgan ishlar uchinchi guruhni tashkil etadi. Rossiya imperiyasining Turkistonga rus aholini ko'chirish orqali paydo bo'lgan qochoqlar hamda rus qishloq va posyolkalarini tashkil etishdan maqsad, mustamlaka ma'muriyati uchun mustahkam rus xo'jaliklarini yaratish, bu hududni homashyo bazasiga va sanoat mahsulotlari bozoriga aylantirish, mahalliy aholini ruslashtirish siyosati bu davr tadqiqotchilari tomonidan ochib berilgan. Bu boradagi ilmiy ishlardan G.A. Axmedjanov, N.A. Abdurahimova, R.A. Yo'ldashev, N.U. Musayev, T.V. Kotukova, J.X. Ismailova, Sh.S. G'afforov, H.P. Jo'rayev, B.E. Rahimov, Sh.T. Ravshanov, F.I. Fayziyeva, Sh.R. Ravshanov, X.Z. Ziyayev, Z.T. Bo'riyev⁶, Sh.A. Xaitov⁷, shuningdek, ayrim tadqiqotlarda xorij fuqarolarining imperiya davrida Turkiston mintaqasidagi diasporasi masalalari bayon etilgan

⁴ Малоховский Н.И. Производительный силы Туркестана. Вып. 1. – Пгр., 1919; Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). – Москва, 1921; Вощинин В.П. О термине «Колонизация». В кн.: О земле: – Пгр., 1922; Вып. II; Галузо П.Г. Туркестань-колония. Очерк истории Туркестана от завоевания русскими революция. 1917. – Москва, 1926. Он же. Вооружение русских переселенцев. // Коммунистическая мысль. 1926; Он же. Туркестанского-колонизаторская концепция истории Российского господства в Средней Азии. // Революция и культуре в Средней Азии. Сборник 3. – Ташкент, 1932; Чокай М. Туркестан под Советской властью. – Париж, 1935.

⁵ Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирата. – Ташкент, 1958. – 77 с.; Он же Русские поселения в Туркестанском крае. конец XIX – начало XX вв. (Социально-экономический аспект). – Ташкент, 1983. – 124 с.

⁶ Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии. (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент, 1995; Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (во второй половине XIX – начале XX вв). Автореф. дисс...докт. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 68 с.; Юлдашев Р.А. Формирование национальной буржуазии в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 26 с.; Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дисс...док. истор. наук. – Ташкент, 1999. – 56 с.; Котюкова Т.В. Проблемы Туркестана в центральных законодательных органах власти Российской империи (1905-1917 гг): Автореф. дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 2001. – 25 с; Исмаилова Ж.Х. Национально-освободительное движение в Туркестане в начале ХХ века (На примере восстания 1916 года в Ферганской долине): Автореф. дис...докт. ист. наук. – Ташкент, 2002. – 56 с.; Гаффоров Ш.С. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане. (вторая половина XIX – начало ХХ веков). Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Ташкент, 2003. – 53 с.; Жӯраев Ҳ.П. Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Фарғона, 2021. – 133 б.; Раҳимов Б.Э. Туркистон генерал-губернаторлигида Каспийорти вилоятининг тутган ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2022. – 155 б.; Равшанов Ш.Т. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири – 1917 йил). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 155 б.; Файзиева Ф.И. Бухоро амирилиги рус манзилгоҳларидаги ижтимоий- иқтисодий ҳаёт. (1868-1920 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. – 128 б., Равшанов Ш.Р. Россия империясининг Фарғона вилоятига аҳолини кўчириш сиёсати ва унинг оқибатлари. (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2023. – 145 б. Зиёев Ҳ.З. Ўзбекистон Мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 448 б., Бўриев З.Т. Россия империяси томонидан Туркистон ўлқасининг Каспийорти вилоятига аҳолини кўчириш сиёсати ва унинг оқибатлари (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) PhD дисс. автореф. – Самарқанд, 2013.

⁷ Ҳайитов Ш.А. Туркистон қочоклари масаласига доир (XIX асрнинг охири – XX аср бошлари). Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги ва Маҳрират номидаги Ўрта Осиё ҳалқлари тарихи институтининг 25 йиллигига бағишиланган Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2016. – Б. 247-252.

dissertatsiya tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasidagi “qochoqlar masalasi” hamon jiddiy, dissertatsiya shaklida o‘rganilgan emas. Ushbu mavzuning ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan tarixchi olim, professor Sh.A. Xaitovning sanoqli maqolalarini⁸ inobatga olmaganda, mazkur mavzuning atroflicha tadqiqoti ilmiy izlanuvchilarni kutib turibdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonga ko‘chib o‘tgan uyg‘ur, dungan, afg‘on va hindlarning ancha salmoqli qismi tadqiqotlar orqali bayon etilgan. B.B. Xudoynazarov, U.B. Mattiyev, O.Sh. Yarmatov va boshqalarning ayrim dissertatsiya tadqiqotlarida xorij fuqarolarining imperiya davrida Turkistondagi hayoti va turmushi masalalari bayon etilgani ham muhim ahamiyat kasb etadi⁹.

To‘rtinchi guruhga xorijiy tadqiqotlar kiradi. Rossiya imperiyasining Turkistonga qochoqlar oqimi va ularga nisbatan yuritilgan siyosati masalalarini tadqiq qilgan xorij olimlari va tadqiqotchilarining ishlarini kiritish mumkin.

Muammoning xorij tarixshunosligi haqida fikr yuritilar ekan, “qochoqlar muammosi” ning o‘rganilish tarixi keyingi yillarda boshlangani va yangi yo‘nalish ekanligi ma’lum bo‘ladi. XIX asr oxiri – XX asr dastlabki o‘n yilligida, Birinchi jahon urushi yillaridagi arman qochoqlari haqida A.A. Artyunyan¹⁰, yahudiy qochoqlari haqida M.A. Zlatina¹¹, belorus qochoqlari to‘g‘risida V.S. Utgof¹². G‘arbiy Sibir qochoqlari tarixi bilan bog‘liq N.S. Shejenina¹³ kabilarning nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinganini qayd etish mumkin.

Avvalo, Sovet hokimiyati parchalanganidan so‘ng uning o‘rnida vujudga kelgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida va Boltiqbo‘yi davlatlarida qochoqlar masalasi bilan bog‘liq jihatlar tahlili kun tartibiga qo‘yildi.

Binobarin, mustaqillik arafasida boshlangan milliy-etnik to‘qnashuvlar, “tubjoy millat” va “milliy ozchilik” munosabatlaridagi ziddiyatli jarayonlar tufayli qochoqlar soni ko‘paydi, yohud majburiy, majburiy-ixtiyoriy migratsiya jarayonlari yuz berib turdi. Bu esa qochoqlar tarixinining Rossiya imperiyasi davrini o‘rganish uchun ham ma’lum ma’noda turtki bo‘ldi desak, xato qilmaymiz.

⁸ Ҳайитов Ш.А. Мухожир Ёқуббекнинг Еттишаҳар давлати //НАМДУ. Илмий ахборотлари. – Наманган, 2004. 2. – Б. 56-59; Шу муаллиф XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон кочоқлари // Тарих тафаккури (Мақолалар тўплами). – Бухоро, 2010. – Б. 3-6; Ҳайитов Ш., Ҳайитова Ш.А. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон кочоқлари масаласига доир // БухДУ илмий ахбороти. – Бухоро, 2011. – №1(41). – Б. 1-4.

Ҳайитов Ш.А. Туркистон қочоқлари масаласи хусусида // Республика, илмий конференция материаллари. – Тошкент, 2016. – Б. 247-252; Ҳайитов Ш.А., Орзиев М.З. 1914-1918 йилларда Россия – Эрон, Россия –Афғон чегарасидаги ахволга доир // Республика, илмий конференция материаллари. IV китоб. – Бухоро, 2012. – Б. 6-9.

⁹Худойназаров Б.Б. Ўзбекистон уйгурлари диаспораси тарихи (1925-2012 йй) (PhD) диссертацияси авторефери. – Тошкент, 2018. – 49 б.; Маттиев У.Б. XIX аср ўрталари – XX аср бошларида Туркистондаги афғон фуқаролари тарихи. (PhD) диссертацияси авторефери. – Самарқанд, 2022. – 50 б.; Ярматов О. Туркистондаги ҳинд фуқаролари тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). (PhD) диссертацияси авторефери. – Самарқанд, 2023. – 49 б.

¹⁰ Артюнян А.А. Первая мировая война и армянские беженцы (1914-1917 г.г.). Автореф. дисс.... канд.ист. наук. – Ереван, 1989. – 26 с.

¹¹ Златина М.А. Проблема еврейского беженства в России в период первой мировой войны. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Санкт Петербург, 2010. – 26 с.

¹² Утгоф В.С. Белорусские беженцы первой мировой войны в 1914-1922 г.г. Автореф.дисс... на соиск. канд.ист.наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 30 с.

¹³ Щеженина А.С. Беженцы на юге Западной Сибирии: 1914-1923 г.г. Источники и методы изучения; Автореф.дисс...на соиск.канд.ист.наук. – Барнауль, 2007. – 29 с.

Mazkur dissertatsiyalarda Rossiya imperiyasida Birinchi jahon urushi arafasida va urush davom etgan yillarda mamlakat bo'ylab qochoqlik oqimlarining kuchayganligi bilan bog'liq sabablar, ayrim millatlarning ta'qib ostiga olinishi, qochoq aholining ijtimoiy holati va tarkibi, ularning avvalda shug'ullangan mashg'ulotlari, hukumat va qochoqlar munosabati, qochoqlar taqdiri kabi keng qamrovli masalalar asl, birlamchi manbalar orqali ilmiy tahlildan o'tkazildi. Shuningdek, bir qator izlanishlar va tadqiqotlarda qochoqlar bilan hukumat munosabatlari hamda qochoqlar manfaati va huquqini himoya qilishga qaratilgan jamiyat, uyushma, turli komitetlar bilan bog'liq jihatlar o'rganildi. Bu o'rinda Rossiya tadqiqotchilari D.G. Sovyan¹⁴, G.N. Ulyanova¹⁵, N.V. Surjikova¹⁶ kabilarning izlanishlarini qayd etish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning dissertatsiya va maqolalarida 1914–1917-yillarda Rossiya imperiyasining 60 ta guberniya, shahar va uyezdlarida rus, polyak, yahudiy, arman, litvalik, latish kabi ko'plab qochoqlarga vasiylik, homiylik qilish komitetlari hamda jamiyatlari faoliyat yuritganligi ko'rsatilgan.

Mavjud manba va adabiyotlarning tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va xorij tarixshunosligida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston mintaqasidagi qochoqlar muammosi alohida olingan va yaxlit bir tadqiqot doirasida o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur masalani mustaqil ilmiy ish sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblashga to'liq asoslar mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasining tadqiqot ishlariga muvofiq "O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar)" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hukmronligi yillarida Turkiston mintaqasidagi qochoqlar tarixi muammosi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini o'rganish asosiy maqsad sifatida belgilab olindi.

Tadqiqotning vazifalari:

Rossiya imperiyasi hukumatining Turkistonni mustamlaka qilish jarayoni va milliy zulmga qarshi kelib chiqqan xalq qo'zg'olonlari tufayli yuz bergan qochoqlik masalalarini o'rganish;

Turkiston mintaqasiga imperiya markaziy guberniyalaridan qochib kelganlar va ularning milliy-etnik tarkibi haqida ma'lumot berish;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida qochoqlar milliy tarkibi va ular sonining keskin oshib borishidagi eng muhim omillarni tahlil etish;

¹⁴ Цовян Д.Г. Деятельность государственных органов и общественных организаций по оказанного помощи беженцам в годы первой мировой войны 1914-1917 г.г. Афтореф. дис... на соиск.канд.ист.наук. – Москва, 2005. – 30 с.

¹⁵ Ульянова Г.Н. Благотворительность и общественные призрение в России в XIX-начало XX в: Институциональное развитие в контексте формировании гражданского общества // Гр. Института России истории РАН. 2000. – №2. – С. 164-177.

¹⁶ Суржикова Н.В. Проблема беженцев в конфликтах и компромиссах властей и общественности России в годы первой мировой войны // Вестник Пермского университета. 2016. Выпуск 1(32). – С. 122-133.

Turkiston mintaqasidagi Birinchi jahon urushi asirlari orasida qochoqlik sabablari va uning yo‘nalishlarini olib berish;

Turkistondagi qochoqlarga imperiya hukumatining munosabati, mintaqalarning qochoqlarining moddiy-maishiy holati va ularning taqdirlari bilan bog‘liq masalalarni olib berish;

Turkiston qochoqlarining tubjoy aholi ma’naviy-ruhiy holatiga salbiy ta’siri haqida fikr-mulohazalar yuritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston mintaqasidagi qochoqlikning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarga ta’siri masalalari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Rossiya imperiyasi davrida Turkiston mintaqasidagi qochoqlik sabablari va uning ijtimoiy, iqtisodiy, etno-milliy jarayonlarga ta’siri hamda oqibatlarining tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tarixiy tadqiqotlar olib borishning analiz va sintez, diaxron va sinxron yondashuv, tarixiylik, obyektivlik va xolislik, xronologik tizimli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turkiston mintaqasida qochoqlar oqimining vujudga kelish sabablari (imperiya hukumatining soliq zulmi, qashshoqlik, xalq qo‘zg‘olonlari, ta’qib va tazyiq, urush va tirikchilik manbaidan ajralish va hokazo) ilmiy jihatidan asoslantirilgan.

Turkistonga Rossianing markaziy rayonlaridan aholini ko‘chirish orqali ham qochoqlar oqimi yuz bergenligi, Turkiston general-gubernatorligi viloyat va uyezdlari bo‘ylab qochoq aholining tarqalishi ularning ijtimoiy, milliy-etnik tarkibi, qochoqlarga nisbatan qo‘llanilgan hukumat chora-tadbirlari, ularning natija va oqibatlari olib berilgan.

Turkiston general-gubernatori va imperiya ma’murlari o‘rtasidagi munosabatlar, qochoqlikning ommaviy tus olish omillari, mahalliy aholi va qochoqlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatli munosabatlar tufayli kelib chiqqan salbiy holatlar aniqlashtirilgan.

Turkiston mintaqasidagi qochoq aholining maishiy hayoti, kundalik turmushi, hukumatning qochoqlar muammosini hal etishdagi tadbirlari (qochoqlarni oziq-ovqat va boshpana bilan ta’minalash sog‘liqni saqlash, o‘z yashash joylariga qaytarish va h.k.) bilan bog‘liq masalalar ilmiy isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan tavsiylandiki, dissertatsiyada Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston mintaqasidagi qochoqlar tarixinining XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid yangi ilmiy dalillar to‘planib, bu davrda Turkiston mintaqasida tashkil etilgan qochoq manzilgohlari, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy jarayonlar, salbiy tendensiyalar, murakkab va ziddiyatli masalalar tahlil etilgan. Tadqiqot Rossiya imperiyasi hukmronligi yillarida O‘zbekiston tarixinining hamon to‘la o‘rganilmagan jihatlarini kengroq olib berishga yo‘naltirilishi amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotda ilgari surilgan g‘oyalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, olingan yakuniy xulosalar asosida Rossiya imperiyasidan Turkiston mintaqasiga

kelgan qochoq aholining turmush tarzi, shuningdek, ichki qochoqlik, ijtimoiy, moddiy va maishiy hayoti, mahalliy aholi bilan munosabatlari masalalari va natijalari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning ishochchliligi avvalo shundaki, dissertatsiyani yozishda muammoga doir bo‘lgan birlamchi arxiv manbalari, tarixiy hujjat va materiallar, ilmiy adabiyotlar, esdalik va xotiralar, fundamental tarixiy tadqiqotlarga tayanilgani, konseptual va ilmiy asosga ega taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatlari davlat organlari, tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining *ilmiy ahamiyati*, avvalo, ishda ilgari surilgan fikr-mulohazalar O‘zbekistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga oid aynan Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida mustamlaka siyosatiga yo‘naltirilgan asl maqsadni anglashdagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada kengaytirish va olingan xulosalarni amaliyotga joriy qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* mustamlakachilik siyosati va uning salbiy oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan maqsadli ilmiy vazifalarni bajarishga, tarixiy bilimlarni kengayishiga, O‘zbekiston tarixini materiallar bilan boyitishga, tarixiy tafakkurni kuchayishiga, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yangi avlodini yaratish va boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston mintaqasidagi qochoqlar: tarixiy tahlil (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)” muammosini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflar asosida:

Turkiston mintaqasida qochoqlar oqimining vujudga kelish sabablari (imperiya hukumatining soliq zulmi, qashshoqlik, xalq qo‘zg‘olonlari, ta’qib va tazyiq, urush va tirikchilik manbaidan ajralish va hokazo) haqidagi ma’lumotlar “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvida bayon etib berilgan;

Turkistonga Rossianing markaziy rayonlaridan aholini ko‘chirish orqali ham qochoqlar oqimi yuz bergenligi, Turkiston general-gubernatorligi viloyat va uyezdlari bo‘ylab qochoq aholining tarqalishi ularning ijtimoiy, milliy-etnik tarkibi, qochoqlarga nisbatan qo‘llanilgan hukumat chora-tadbirlari, ularning natija va oqibatlari, Turkiston mintaqasida qochoqlar oqimining vujudga kelishiga oid ma’lumotlar va yangiliklardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “O‘zbekiston tarixi” kanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuving senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston ” teleradiokanalini davlat muassasasining 2023-yil 17-fevraldagi 02-31-265-son ma’lumotnomasi). Bu ko‘rsatuvda Turkiston mintaqasidagi qochoqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti ilmiy asosda tahlil qilingan;

Turkiston mintaqasidagi qochoqlar muammolarini hal etishda mahalliy boshqaruv bilan Turkiston general-gubernatori va imperiya ma’murlari o‘rtasidagi munosabatlari, qochoqlikning ommaviy tus olish omillari, mahalliy aholi va qochoqlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatli munosabatlari tufayli kelib chiqqan salbiy

holatlar yuzaga kelganligi haqidagi ilmiy hulosalardan Respublika tojik milliy madaniy markazning ma'lumotlarini ilmiy jihatidan boyitishga va muzey ko'rgazmalarini to'ldirishdagi targ'ibot ishlarida foydalanilgan;

Turkiston mintaqasida qochoq aholining maishiy hayoti, kundalik turmushi, hukumatning qochoqlar mummosini hal etishdagi tadbirlari (qochoqlarni oziq-ovqat va boshpana bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, o'z yashash joylariga qaytarish va h.k.) borasidagi tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida olingen ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan Respublika tojik milliy madaniy markazning targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika tojik milliy madaniy markazning ma'lumotnomasi). 2023-yil 15-apreldagi 7-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining joriylanishi Turkiston mintaqasidagi qochoqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi dunyo qarashni boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari jami 17 ta nashr qilingan ishlarda, jumladan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilova kabi qismlardan iborat. Dissertatsyaning tadqiqot qismi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji asoslanib, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'naliishlariga mosligi ko'rsatilgan; mavzuning o'r ganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi asoslangan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan; tadqiqot usullari aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, dissertatsiya tuzilishi va hajmi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning "**Rossiya imperiyasining Turkistonne mustamlaka qilish jarayonidagi qochoqlikning kelib chiqishi: muammoning manbashunosligi va qochoqlik sabablarï**" deb nomlangan birinchi bobida mavzuni ochib berishga xizmat qilgan manbalar tasnifi, qochoqlikni keltirib chiqargan sabablar va xalq qo'zg'olonlari davrida qochoqlar sonining ortib borishi masalalari tahlil qilingan.

"Qochoq" atamasi¹⁷ "migratsiya" tushunchasidan farq qilib, insonlarning hayoti, oilasi, mol-mulki kabilarga xavf tug'ilsa, hukumat va ma'muriyat organlari tazyiqi tomonidan o'lim bilan yuzma-yuz kelish holati kelib chiqsa, qochoqlar

¹⁷ O'zbek tilining izohli lug`atida "qochoq" odatda ko'plik shaklida – qochoqlar Biror falokat, sabab tufayli o'z joyi, vatanini tashlab qochib, o'zga joy, yurtda kezuvchi, bo'luvchi shaxs(lar). O'zbek tilining izohli lug`ati V-j. – Тошкент: O'zME, 2008. – B. 352.

guruhi vujudga keladi. Uy qamog‘i, maxsus rejim, qat’iy nazorat ostida saqlanib turilishi holatida ham qochoqlik kelib chiqadi.

Dissertatsiyada qochoqlar muammosini keltirib chiqargan sabab va omillar tahlil etilar ekan, bu jihatni o‘rganishga qaratilgan manbalarni xususiyatiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘lish mumkin, ular arxiv manbalari, davriy matbuot ma’lumotlari, turli xarakterdagi ma’lumotnoma va statistik hujjatlar, “Turkiston to‘plami”dagi maqola va xabarlardan iborat. Manbalarning ma’lumoticha, Turkistonda qochoqlar soni XX asr boshida 57 ming nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, Birinchi jahon urushi yillarida 200 ming nafardan oshib ketgandi¹⁸.

Dissertatsiyada O‘zbekiston Milliy Arxivi (O‘zMA)ning Rossiya imperiyasi mustamlakasi davri bilan bog‘liq 18 ta fond materiallaridan foydalanildi.

Qochoqlar masalasiga qaratilgan eng muhim fondlar tahlil qilinar ekan, ayniqsa, Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi (I-1-fond), Buxoro amirligi siyosiy ayg‘oqchiligi (I-3-fond), Sirdaryo viloyati boshqarmasi (I-23), Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi (I-461-fond) materiallari qochoqlar tarixini o‘rganishda muhim manbalar hisoblanadi. Ayrim fondlarga saqlanayotgan yig‘ma jiddlarda, nuqul qochoqlar masalasi haqida ma’lumotlar mavjudligi aniqlandi¹⁹.

Qochoqlar muammosini o‘rganishda o‘nlab matbuot organlaridagi xabar va ma’lumotlarga tayandik. Imperiya hukumati hukmronligi yillarida bosilib chiqqan gazeta va jurnallarda «Беженцы», «Жизнь беженцев», «Туркестанские ведомости», «Окраина», «Туркестанский курьер» kabilarda boy materiallar to‘plangan. Ularda qochoqlar soni, ahvoli, maishiy-madaniy holati, milliy-etnik tarkibi, qochoqlar uyushmalari, qochoqlar masalasida hukumat siyosati kabilar haqida bir qator dalillar keltirilgan. Ayniqsa, «Жизнь беженцев», «Земское дело» kabi matbuot organlari bu borada yetakchi rol egallaydi²⁰.

Uchinchi guruh manbalar statistik ma’lumotlar va hisobotlar hisoblanib, Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti, Samarqand, Farg‘ona, Sirdaryo viloyatlarida 1890–1915-yillardagi tarixiy hujjatlarda aks etgan²¹. Bu ma’lumotnomalarda viloyatlar bo‘yicha qochoqlar soni, milliy-etnik tarkibi, yuzlab taqdirlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

¹⁸ Суржикова Н.В. Проблема беженцев в конфликтах и компромиссах властей и общественности России в годы первой мировой войны // Вестник Пермского университета, 2016, Выпуск 1(32). – С. 122-123. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-I-fond, 845 yig‘ma jild (1-qism), 242-243-varaqlar.

¹⁹ O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1 fond, 1-ro‘yxat, 845 yig‘ma jild (1-2 qism), 849 yig‘ma jild, I-461-fond, 1 ro‘yxat 1948,1669 yig‘ma jiddlar va h.k.

²⁰ Дело помоши беженца // Земское дело; 1915, №19, Новый план помоши беженцам// Земское дело, 1916, №4. Помощь беженцами // Земское дело 1916, №1; «Жизнь беженцев» 1916, №1; №2; №3; №4; №5; №6, №7 ва x.k.

²¹ Отчет чиновника особых поручение при Министерстве внутренних дел А.А. Половцова, командированного 1896-1897г.г для собрание о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. – СПб., 1898. – 231 с.; Об изданной канцелярия комитета Министров справочной книги под заглавием «Алфавитный список». народов обивающих в Российской империи. – СПб., 1892. – 415 с. Отчет по ревизии Туркестанского края, производственной по высочайшему поведению сенатором, гофмейстером графом К.К. Паленом переселенческое дело в Туркестане. – СПб., 1910. – 177 с.; Отчет по ревизии Туркестанского края, производственной по высочайшему поведению сенатором, гофмейстером графом К.К. Паленом. Т. VI – Учебное дело. – СПб., 1910. – 269 с.; Обзор Самаркандской области, за 1896, 1898, 1901, 1907, 1909 год; За Каспийской области за 1901, 1903, 1907, 1913 год. Обзор Сыр-Дарьинской области за 1909 год. – Ташкент: типография при канц. Туркестан генерал-губерн. 1911. – 203 с.; Пален К.К. Приложение к отчету ревизии Туркестанская края: Материалы к характеристика народного хозяйства Туркестана. Ч. 1. Отд 4. – СПб., 1911. – 419 с. ва бошқалар.

Qochoqlar tarixi manbashunosligida 594 tomlik “Turkiston to‘plami” dagi maqolalar ham muhim manba bo‘la oladi. “Turkiston to‘plami” materiallari tahlil qilinar ekan, mintaqaga ko‘chirilgan aholi bilan bir qatorda qochib kelganlar ham anchagina bo‘lganligi, ularning mashaqqatli hayot yo‘li haqida fikr-mulohazalar bildirilgan²².

Umuman, muammoning manbashunosligi shu bilan xarakterlanadiki, ma’lumotlarning turli manbalarda tarqoq holda mavjudligi holda, shuningdek, qochoqlar masalasiga bag‘ishlab maxsus matbuot organlari chop etilganligini ham e’tirof etish mumkin.

Dissertatsiyada qochoqlikning ichki va tashqi sabab hamda omillari tahlil etilar ekan, bu o‘rinda 1861-yilda Rossiyada krepostnoylik huquqini bekor qilinishi bilan kelib chiqqan muammolar, 1890-yillardagi Volga bo‘yi va Uraloldi viloyatlaridagi ocharchilik, 1905–1907-yillardagi Rossiya xalqlari inqilobi, 1907–1911-yillardagi Stolipin agrar islohotlari, Birinchi jahon urushi kabilar alohida qayd etib o‘tilgan. Qochoqlar guruhining ommaviy tus olib, ko‘payib borishida Rossiya davlatining muvaffaqiyatsiz tashqi siyosati (1877–1878-yillardagi rus-turk urushi, 1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi, Birinchi jahon urushidagi mag‘lubiyatlar va h.k.) bilan bog‘liq omillar o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, 1915-yil iyul oyiga qadar birgina Kaspiyorti viloyatiga 70 mingdan ortiq qochoqlar oqimi kirib kelgan. Rossiya ichki rayonlaridan, ayniqsa, Samara va Saratovdan qochib kelganlar ko‘p sonli edi²³.

Xullas, Turkiston Rossiya mustamlakasi yillarda qochoqlar sonining ko‘payishiga yuqorida qayd etilgan omil va sabablar o‘z ta’sirini ko‘rsatib, bu davr qochoqlikning ommaviy tus olishi bilan xarakterlanadi.

Dissertatsiyaning birinchi bob ikkinchi paragrafida Turkiston mintaqasida xalq qo‘zg‘olonlari tufayli kelib chiqqan ichki va va tashqi qochoqlikning sabablari va qochoqlar sonining muttasil ortib borishi tahlil etilgan. Imperiyaning mintaqaga bostirib kirishi, Qo‘qon xonligi hududini mustamlakaga aylantirish jarayonida hamda hududda harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimini o‘rnatish jarayonida kelib chiqqan qochoqlik jarayonlari tahlil etilgan.

Tadqiqotda Qo‘qon xoni beklaridan biri Yoqubbekning imperiya harbiyalaridan noteng janglarda yengilishi orqali bek va harbiylarni o‘ziga ergashtirib Sharqiy Turkiston (Xitoy)ga qochib o‘tishi, Buxoro amiri Muzaffarning to‘ng‘ich farzandi Abdumalik Katta To‘raning Samarqand shahri uchun janglarda muvaffaqiyatsizligi tufayli avval Xiva xonligi hududiga, so‘ngra esa Qoshg‘arga, undan Afg‘oniston va Hindistonga qochib borishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan²⁴.

²² Александр К. Образование посёлка на Куван-Дарья // Туркестанский сборник. Том 476. – С. 127-129. Бушев М. Показательное «нормальное» хозяйство в Голодной степи// Туркестанский сборник. Том 500. – С. 199-211. Валериань Правдив. Роль русской колонизации// Туркестанский сборник. Том 436. – С. 129-130. Велецкий С. О колонизационном значение Семиречья // Туркестанский сборник. Том 496. – С. 77-88; В. Сырь-Дарынскомъ переселенческом управлении// Туркестанский сборник. Том 503. – С. 178-179. Граф Головин, Колонизация Туркестана (Корреспонденция нового времени) //Туркестанский сборник. Т. 542. – С. 343-344.

²³ O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1687 yig‘ma jild, 8-varaq, 8-varaqning orqasi, O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1657 yig‘ma jild, 4-varaq, 4 varaqning orqasi.

²⁴ Ҳайитов Ш.А. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Abu-matbuot konsalt, 2008. – Б. 26-27, O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 2-ro‘yxat, 18 yig‘ma jild, 5-varaq., 11-ro‘yxat, 136-varaq, 140-varaq, 142-varaq, 142-varaqning orqasi.

Shuningdek, 1876–1877-yillarda Qo‘qon xonligida yuz bergan Po‘latxon (Mulla Ishoq) qo‘zg‘oloni paytida yengilgan qo‘zg‘olonchilarning bir qismi Xitoy va Afg‘onistonga qochib o‘tganlar, ayni shu paytda Xitoy hukumatining noinsoniy siyosati tufayli minglab uyg‘ur va dunganlar Turkiston general-gubernatorligining Yettisuv viloyatiga qochib o‘tishgan²⁵. Rus generali Skobelov qo‘shinida xizmat qilgan mahalliy xalq vakillaridan biri o‘z ma’lumotnomasida: “Meni 21 nafar yigitim bilan Qurbonjon dodhoh o‘g‘li Abdullabek otryadini ta’qib qilish uchun yuborishdi. Qizilart (O‘sh) ga yetib borganimda Abdullabek o‘zining 50 tacha yigitlari bilan Afg‘onistonga qochib ketdi, degan xabarni eshitib ortga qaytdim”, – degandi²⁶.

Xorijga qochib o‘tganlarning mehnat qurollari va harbiy, ov anjomlari musodara qilingan, o‘zlar mardikorlik qilib, kun ko‘rishgan²⁷.

Dissertatsiyada qochoqlarning asosiy harakat yo‘nalishlari Afg‘oniston va Sharqiy Turkistonga (Xitoy) qarab yo‘nalgani asoslandi. Bu yerda Turkiston bilan mazkur hududlarning o‘zaro chegaradoshligi, ular azaliy savdo-sotiq, diplomatik va madaniy aloqalarda bo‘lganligi, shuningdek, islam dinining sunniy mazhabiga e’tiqod qilishidagi birligi kabi jihatlar dalillandi. Tadqiqotda 1898 yildagi Andijon qo‘zg‘oloni (Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni) tufayli qo‘zg‘olonda ishtirok qilgan o‘zbek, tojik, qirg‘izlar Turkiston viloyat va uyezdlardagi ovloq chekka hududlarga qochib ketib yashirinishgan. Aholining Andijon va Yettisuv atrofidagi tog‘larga qochib borishlari, shuningdek, Sharqiy Turkistonning Qoshg‘ar va G‘ulja shaharlariga qochib o‘tislari bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan²⁸.

Arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1898-yilda xalq qo‘zg‘olonda ishtirok etgan Mullanazar Qirg‘iz bilan Sharqiy Turkistonga qochib borib yashiringan 8 nafar qochoqlar qidirilayotganligi qayd etilib, Qoshg‘ardagi qochoqlarni qidirish 1901–1902-yillarda ham davom etgan²⁹.

Qochoqlar sonining ko‘payishida qo‘zg‘olonda ishtirok qilib, asirga olingan va Sibirga surgun qilingan 200 nafardan ortiq kishining fojiali taqqidlari, qiyonoqqa solib o‘ldirilgan, 6 nafar qo‘zg‘olon rahbarlari fojiasi ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan edi³⁰.

Tadqiqotda 1916-yil “Jizzax qo‘zg‘oloni” va uning yengilishi tufayli kelib chiqqan qochoqlik haqida batafsил ma’lumotlar keltirilgan. Qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga

²⁵ Зиёев Ҳ.З. Туркистанда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 443 б.; Ҳайитов Ш.А. Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). – Б. 38.

²⁶ Ҳайитов Ш.А. Ўзбек мухожирлиги тарихи. – Б. 27; ЎМА, И-1-фонд, 11-рўйхат, 136-варак, 140-варак, 142-варак, 142-варакнинг орқаси.

²⁷ Ҳайитов Ш.А. Бухоро амирлиги ва Афғонистон чегаралари масаласида Англия–Россия зиддиятлари (XIX асрнинг 70–90-йиллари) // БухДУ илмий ахбороти, 2017. – №1. – Б. 132-138.

²⁸ Зиёев Ҳ. Туркистанда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVI – XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 36-43. Чориев З. Туркистон мадикорлари сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1916-1917 йиллар). – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 38,78-76. Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси (Фарғонада истибод жаллодлари). – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 80 б.; Эгамназаров А. Сиз билган Дукчи Эшон. – Тошкент: Шарқ, 1991. – 111 б. ва ҳоказо.

²⁹ Эгамназаров А. Сиз билган Дукчи Эшон. – Тошкент: Шарқ; 1994. – Б. 60-69; O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 32-го‘ухат, 196 yig‘ma jild, 20, 21, 44-varaqlar., 195 yig‘ma jild, 19, 20, 23-varaqlar. Ҳайитов Ш. Собиров У. 1898 йилдаги Андижон кўзғолони ва Туркистан мухожирлиги. // БухДУ илмий ахбороти, 2006. – №2. – Б. 8.

³⁰ Гинзбург А.И. Русское население в Туркистане... – Ташкент, 1991. – С. 57.

uchraganidan so‘ng, Turkistondan Xitoyga qochib o‘tganlarning umumiyligi soni 300 ming nafarni tashkil etib, qochoqlar Qoshg‘ar, Oqsu, Uchturfon, G‘ulja kabi Xitoy shaharlariga yetib borguncha barcha qoramollari, 50 foiz buyumlari, 4/3 qism qo‘y-qo‘zilaridan ajralishgan³¹.

Xullas, Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida har uch yilda bir bor imperiya zulmiga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari yuz berib turishi oqibatida aholi orasida chekka hududlarga qochib borib, jon saqlash va qo‘shni davlatlar hududidan qochoqlar sifatida boshpana izlash jarayoni uzlusiz davom etib turgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob “**Rossiya markaziy guberniyalari, qo‘shni mamlakatlar va Kavkazortidan Turkistonga qochib kelganlar, ularning milliy-etnik tarkibi, ijtimoiy holati**” deb nomlangan. Ushbu bobda Turkiston mintaqasiga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qochib o‘tgan afg‘onlar, Sharqiy Turkiston va G‘arbiy Turkiston aholisining hududlararo qochoqlik jarayonlari, Turkiston general-gubernatorligining Yettisuv va Sirdaryo oblastidagi qochoqlik, yahudiy, Kavkaz xalqlari va nemis-mennonitlari kabilalar qochoqligi va qochoqlarning turli toifalari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatdiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg‘onistondan rus-afg‘on, Buxoro amirligi-Afg‘oniston chegaralari orqali ming-minglab afg‘on qochoqlarining oqimi yuz berib turgan. Qochoqlarning Afg‘onistondan Turkiston mintaqasiga qochib o‘tishlariga, Amudaryo bo‘ylab cho‘zilgan chegaralarning bo‘sh qo‘riqlangani, daryodan o‘tishda sayoz joylar va to‘qayzorlar mavjudligi, Afg‘oniston-Turkiston bo‘ylab savdo karvonlarining doimiy qatnovi kabi omillar qulay imkoniyatlar tug‘dirgan. Yana bir jihat shundaki, afg‘on qochoqlari Kaspiyorti viloyatida ko‘p sonli bo‘lib, viloyatda bo‘sh yerlar ko‘pligi hamda ishchi kuchiga ehtiyoj yuqoriligi ham ta’sir ko‘rsatgan³².

Afg‘oniston qochoqlarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga siyosiy qochoqlar kirib, taxt uchun kurashlarda yengilgan 10 ming nafar “Jamshidiy qabilasi”ning a’zolari, aslzodalar Said Ahmadbek, Muhammadbek kabilalar yo‘lboshchiligidagi Kaspiyorti viloyatidan boshpana topishgan. Qochoq amir va xonzodalarga imperiya hukumati tomonidan nafaqa belgilanib, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalaniilgan³³.

Rus sharqshunos olimi D.I. Logofetning yozishicha, afg‘on shahzodalaridan Is’hoqxon 100 nafar qarindoshi bilan jon saqlash maqsadida Turkiston hududiga qochib o‘tgan, rus hukumatidan bir yilda 12.000 rubl nafaqa olgan. Uning farzandi Ismoilxon rus armiyasida xizmat qilib, polkovnik harbiy unvoniga sazovor bo‘lgan. Afg‘on shahzodalaridan Ishoqxonning diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor bo‘lganligi haqida D.I. Logofet ma’lumot beradi³⁴.

³¹ Суюнова О. Туркистанда 1916 йилда миллий озодлик кураши (Сирдарё вилояти мисолида). – Тошкент: Фан; 1997. – Б. 40-41; O‘zbekiston Milliy Arxiv, I-1-fond, 31-ro‘yxat, 1100 yig‘ma jild, 248,249, 250-varaqlar, 2-ro‘yxat. 248- yig‘ma jild, 108, 109, 110-varaqlar.

³² Смесова Е. Культурно – просветительская и научная деятельность русский учреждения в Туркестанским крае (XIX-XX). – Ташкент, 2011. – С. 21.

³³ O‘zbekiston Milliy Arxiv, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 948 yig‘ma jild, 49, 50, 51, 58-varaqlar, 1818 yig‘ma jild, 127-128 varaqlar.

³⁴ Логофет Д.Н. На границах Средний Азии. Путевые очерки 3-х книгах. Книга II. Русско-афганская граница. – Санкт-Петербург, 1909. – С. 32,33, 34, 35.

Siyosiy qochoqlardan tashqari Afg'oniston hududidan moddiy ahvoli og'ir bo'lgan afg'onlar ham Turkistonga qochib o'tib, ular o'nlab kasblar bilan shug'ullanishgan yoki mardikorlik qilishgan³⁵.

Dissertatsiyada Afg'onistondan Turkistonga qochib o'tgan yuzlab afg'on fuqarolarining moddiy-maishiy ahvoli, oilaviy holati qarzdor yoki qarzdor emasligi haqida ma'lumotlar keltirilgan³⁶. Shuningdek, dissertatsiyada Buxoro amirligi hududidan (Qubodiyon bekligidan) soliq zulmi ta'qib va tazyiqlar tufayli Afg'onistonga qochib o'tgan o'zbek va tojiklar haqida ma'lumot berilgan. Qochoqlik tufayli ekin yerlari tashlandiq holatga kelib, qishloqlar bo'shab qolganini arxiv hujjatlari tasdiqlaydi³⁷.

Buxoro amirligida bu davrda afg'on fuqarolarining orasida ixtiyoriy, ixtiyoriy-majburiy ko'chirilganlar bilan birga qochoqlar ham bir qadar o'zlarini o'nglab, savdo-sotiq bilan shug'ullanganligi, afg'on fuqarolari orasida kosib va etikdo'zlar ko'p ekanligi bilan bog'liq masalalar tarixiy tadqiqotlar va arxiv hujjatlaridan o'rin olgan³⁸.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, ayniqsa, Sharqiy Turkistondan (Qoshg'ar) Turkiston general-gubernatorligining hududlariga ming-minglab uyg'ur va dunganlar qochib o'tgan. Arxiv manbalarning tasdig'icha, 1881–1883-yillarda 60 ming sonli uyg'ur va dunganlar Yettisuv va Farg'ona viloyatlariga qochib o'tgan³⁹.

Dissertatsiyada Rossiya imperiyasi Xitoydan qochoqlarning moddiy-maishiy ta'minoti uchun 9 mln. rubl tovon puli olganligi, bu tovon puli qochoqlarni joylashtirish uchun sarflanganligi bilan bog'liq dalillar keltirilgan. 1883–1888-yillarda qirg'iz xo'jaliklarining Xitoya qochishi kuchayib, uning asosiy omili soliq va majburiyatlardan jabr ko'rish va Xitoyda unumdar yerkarning ko'pligi kabi sabablar bo'lgan.

Ayni shu yillarda uyg'ur, dungan va taranchilarning Farg'ona va Kaspiyortiga qochib o'tishi kuchayib, 1904–1912-yillarda qochib kelgan qoshg'arliklar soni 120 mingdan ortiq ekanligi qayd etilgan. Uyg'ur, dungan va taranchilarning tarqalishi 1910-yillarning oxiriga qadar davom etgan⁴⁰.

Aynan ana shu davrda uyg'ur va dunganlar bilan Farg'ona vodiysiga yangi ekin navlari hamda yangi ovqat turlari kirib keldi⁴¹. Rossiya imperiyasi hukumati qochoqlar oqimini to'xtatish, Xitoy-Rossiya chegarasida tartib o'rnatish, qochoqlar

³⁵ O'zbekiston Milliy Arxivi. I-126-fond, 12-ro'yxat, 240 yig'ma jild, 17-varaq.

³⁶ O'zbekiston Milliy Arxivi. I-126-fond 1-ro'yxat, 241 yig'ma jild, 19-varaq, 19-varaq orqasi, 20-varaq, 20-varaqning orqasi, 240 yig'ma jild, 18-varaq, 18-varaqning orqasi.

³⁷ O'zbekiston Milliy Arxivi. I-3-fond, 2-ro'yxat, 273 yig'ma jild, 1-6-varaqlar.

³⁸ Элова Д.Д. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда янги техникалар тарқалишининг иктисадий-ижтимоий ва маданий-майший хаётига таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Бухоро, 2022. – 154 б., O'zbekiston Milliy Arxivi, I-48-fond, 1-ro'yxat, 22 yig'ma jild, 197-198 varaqlar; I-461-fond, 1-ro'yxat, 1648 yig'ma jild, 85-varaq, 85-varaqning orqasi; 1818 yig'ma jild, 48-49-varaqlar; Фомченко А.П. Русские поселения в Бухаре и роль в экономическом, развитии ханства и участии в революционном движении. Автореф. дисс...канд.ист.наука. – Ташкент, 1965. – С. 14, Шодмонова С. Туркистон матбуотида хунар таълими масалалари // Бухоро давлат университети илмий ахбороти, 2009. – №3. – Б. 23.

³⁹ O'zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 10-ro'yxat, 603 yig'ma jild, 7-varaq.

⁴⁰ O'zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 2-ro'yxat, 1905 yig'ma jild, 4, 5, 8-varaqlar.

⁴¹ Худойназаров Б.Б. Ўзбекистон уйғурлари диаспораси тарихи (1925-2012 йй) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 49.

komissiyasi orqali aholining yashash sharoitlarini yaratish chora-tadbirlarini ko‘rdi va bu masalada qoidalarni ishlab chiqdi⁴². Dissertatsiyada aniq raqam va dalillar orqali 1880–1910-yillarda Sharqiy Turkiston va G‘arbiy Turkiston qochoqlari, ularning soni, oilaviy ahvoli, o‘z yashash joyidan qochgan yili, qochish sabablari haqida arxiv hujjatlari orqali ma’lumotlar keltirildi⁴³.

Xullas, Sharqiy Turkiston va G‘arbiy Turkiston aholisi o‘rtasida qochoqlik jarayoni uzlusiz davom etib, Yettisuv va Farg‘ona viloyatlarida uyg‘ur, dungan, taranchilarning qochoq guruhlari soni yildan-yilga oshib bordi. Yettisuv va Sirdaryo oblastlaridagi qochoqlik, qochoqlarning ahvoli va bu boradagi hukumat tadbirlari haqida batafsил fikr yuritilgan. Ayniqsa, 1881-yilda Sankt-Peterburgda tuzilgan Rossiya-Xitoy shartnomasidan keyin ikki mamlakat chegarasi bo‘ylab, aholining erkin ko‘chib yurishiga chek qo‘yilgan⁴⁴.

Tadqiqotda Yettisuv viloyatining Jarkent, Prjevalskiy, Verniy (Olmaota) uyezdalaridan Xitoya qochib borgan qirg‘iz va qoraqirg‘iz o‘tovlarining soni yildan-yilga oshib borganligi xronologik izchillilikda bayon qilingan.

1900–1901-yillarda birgina Verniy uyezdi aholisining 30 foizi Xitoya qochib ketganligi, ular orasida urug‘ boshlig‘i va oqsoqollari ham borligi arxiv manbasida qayd etilgan. Shuningdek, 460 o‘tov qirg‘izlar Lepsin uyezidan qochib borib Rossiya-Xitoy chegarasida to‘planganlar, chegara postlarida ularni ortga qaytarish imkonni bo‘lmagan.

Qochoqlar sonining ko‘payishiga 1894–1897-yillardagi hosilsizlik va ochlik xavfi, chorva hayvonlari uchun yaylov hamda yerkarning yetishmasligi, qirg‘izlarning Xitoy tomonidagi urug‘-aymoq va qarindoshlariga tayanishi kabi ko‘pdan-ko‘p omillar sabab bo‘lgan⁴⁵.

Tadqiqotda Yettisuv oblastidan Xitoya qochoqlikning oldini olish uchun rus hukumati soliqlarni kamaytirish, qochoqlikni targ‘ib qiluvchilarni jazoga tortish va barcha imtiyozlarni bekor qilish, maxsus soliq va majburiyatlarni to‘xtatish, beqaror kishilarni ro‘yxatga kiritish, jarimaga tortish, rus fuqaroligidan mahrum etish kabi vositalarni qo‘llaganligi qayd etilgan. Biroq, qochoqlarni qaytarish va ularni yashash joylarida barqarorlashtirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar o‘zining samarasini bermagan⁴⁶.

Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi Qo‘rg‘ontepa, Baljuvon, Ko‘lob, Qubodiyonbekliklariga Sirdaryo viloyatidan ko‘chmanchi qirg‘izlarning mingdan ortiq o‘tovlari ko‘chib o‘tganligi, qochib kelganlardan

⁴² O‘zbekiston Milliy Arxivi. I-1-fond, 13-ro‘yxat, 981 yig‘ma jild, 276-varaq, 276-varaqning orqasi, 277-varaq, 277-varaqning orqasi, 278-varaq, 278-varaqning orqasi, 279-varaq, 279-varaqning orqasi.

⁴³ O‘zbekiston Milliy Arxivi. I-1-fond, 13-ro‘yxat, 981 yig‘ma jild, 277-varaq, 277-varaqning orqasi, 163 yig‘ma jild, 66-varaq, 66-varaqning orqasi, 77-varaq, 77-varaqning orqasi, 78-varaq, 78-varaqning orqasi.

⁴⁴ Сайфиддин Жалил. Бухорийлар киссаси (Муҳожират тарихидан лавҳалар). – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 32–33.

⁴⁵ O‘zbekiston Milliy Arxivi. I-1-fond, 13-ro‘yxat, 981 yig‘ma jild, 157-varaq, 157-varaqning orqasi, 170-varaq, 170-varaqning orqasi, 265-varaqning orqasi, 163 yig‘ma jild, 85-varaq, 85-varaqning orqasi, 86-varaq, 86-varaqning orqasi, 87-varaq, 87-varaqning orqasi, 131-varaq, 170-varaq.

⁴⁶ Ҳайитов Ш.А. XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Туркистон қочоклари // Тарих тафаккури. – Бухоро, 2010. – Б. 5.

495 o‘tov qirg‘izlarda ocharchilik, qahraton qishsovug‘i, qarzdorlik, majburiyat va soliqlar yuki kabi omillar bo‘lgani arxiv manbalari orqali dalillangan⁴⁷.

Dissertatsiya mazkur bobining to‘rtinchi paragrafida Rossiya imperiyasi markaziy rayonlaridan Turkistonga kirib kelgan yahudiylar va ularning orasidagi qochoqlar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Tubjoy yahudiylar “Buxoro yahudiylari” deb atalsa, imperiya markazidan kelgan yahudiylar “mahalliy yahudiylar” yohud “yangi yahudiylar” deb atalgan. XIX asr oxirida Turkistonda 4,5–5 ming atrofida Buxoro yahudiylari, 5 ming nafar “yangi yahudiylar” istiqomat qilgan⁴⁸.

Bir hududdan ikkinchi joyga ko‘chish, yashash joyini o‘zgartirib turish, qochib yurish holatlari, yahudiylarda ko‘p bor kuzatiladi, Rus hukumati XIX asrda ko‘chmas mulk, uy-joy, do‘kon, omborlarga ega bo‘lishda yahudiylarning huquqlarini chegaralab kelgan. XIX asr oxirida ularga bir qator imtiyozlar berilgan. Biroq ularga beriladigan yer maydoni 26 sarjindan oshmasligi, tadbirkorlarning soni esa 15 foizdan oshmasligi belgilab qo‘yilgan.

Yahudiylarni ko‘chirish bilan bog‘liq hukumat tadbirlari ularni Turkiston general-gubernatorligining hududi va viloyatlariga qochib kelishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, 1900–1910-yillarda qochib kelganlarning soni keskin ko‘paydi⁴⁹. Kamsitish va tazyiq, doimo ta’qibdan xalos bo‘lish uchun yahudiylar rus fuqaroligini qabul qilish, o‘z e’tiqodidan voz kechib, pravoslav diniga o‘tish, yashash joyini o‘zgartirish kabi choralarni ko‘rishga majbur bo‘lganlar. Masalan, 1901–1905-yillarda 50 ta oila yahudiylar Farg‘ona viloyatiga ko‘chib kelgan. Ular mayda hunarmandchilik, maklerlik, savdo-sotiqa va sudxo‘rlik bilan shug‘ullanganlar⁵⁰. Tadqiqotda 1880–1881-yillarda va 1892–1893-yillarda Rossiyadan Kaspiyorti viloyati va Xiva xonligi hududlariga ko‘chib kelgan nemis-mennonitlari haqida ma’lumotlar keltirilgan⁵¹. Nemis-mennonitlarining Buxoro amirligi chegarasiga qochib kelganliklari, amirlikning Ziyovuddin va Karmana bekliklari orqali amirlik hududiga o‘tishga ruxsat so‘raganlari bilan bog‘liq jihatlar ochib berildi.

⁴⁷ O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 11-ro‘yxat, 208 yig‘ma jild, 10,11,12,13,14,15,35,36,37,38,43,44-47, 48-varaqlar.

⁴⁸ Ниёзов Н. Бухоро яхудийлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Бухоро, 2016. – Б. 24-38, Акобирова М., Кандов Б. Яхудиёни Бухоро // Бухоро ҳакиқати. 1992 йил 26 май. О‘zbekiston Milliy Arxivi, I-3-fond, 12-ro‘yxat; 2079 yig‘ma jild, 923-varaq, 923-varaqning orqa tomoni, Об изданной Канцелярия комитета Министров. Справочной книги под заглавием «Алфавитный список» народов обитающих в Российской империи. – Санкт-Петербург, 1892. – 415 с.; O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 11-ro‘yxat, 1191 yig‘ma jild, 18-varaq, 18-varaqning orqa tomoni, 24-varaq.

⁴⁹ O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-3-fond, 2-ro‘yxat, 643 yig‘ma jild, 511-varaq, 511-varaqning orqasi, 1-ro‘yxat, 39 yig‘ma jild, 138-139-varaqlar, 90 yig‘ma jild, 46-47 varaqlar, 127-varaq, 147-varaq, 31 yig‘ma jild, 45-varaq, 45-varaqning orqasi, 46, 47-varaqlar, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 549 yig‘ma jild, 6,7-varaqlar, I-1-fond, 17-ro‘yxat, 914 yig‘ma jild, 9-varaq, 9-varaqning orqasi, 10-varaq, 10-varaqning orqasi.

⁵⁰ O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 17-ro‘yxat, 914 yig‘ma jild, 3-varaq, 3-varaqning orqa tomoni, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 655 yig‘ma jild, 1,2,3-varaqlar, I-23-fond, 1-ro‘yxat, 759 yig‘ma jild, 21,22,23-varaqlar, 50,51-varaqlar, I-1-fond, 11-ro‘yxat, 1191 yig‘ma jild, 17, 18-varaq, 18-varaqning orqasi, 19-varaq.

⁵¹ Граф Головин. Колонизация Туркестана // Туркестанский сборник. Том 942. – С. 343; Собиров Н., Эгамназаров А. Фарғона водийсининг ижтимоий-иктисодий ва маданий ривожланишида немис ишбилиармонлари ҳиссаси. – Тошкент, 2002. – Б. 160-163; Ҳайитов Ж.Ш. Россия империясининг кўчириш сиёсати ва немис-мennonетлари тақдиди (XIX аср охири XX аср бошлари). Миллий Хабарнома АДУ. – №1. 2018. – Б. 65-70, Маткаримов С.А. Хива хонлигига нарх-наво, аҳоли ва солиқ // Ўзбекистон овози, 2005 йил 15 октябрь; Ҳайитов Ж.Ш. Ўша мақола. – Б. 67; Жўраев Х.П. Туркистонга кўчирилган аҳолининг ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти. – Б. 72-74.

O‘zbekiston milliy arxivi fondlari ma’lumotlariga tayanilgan holda nemis-mennonitlari qochoqlarining Buxoro amirligi tasarrufida qishloq va posyolkalari vujudga kelmaganligi sabablari olib berilgan⁵².

Dissertatsiyaning ushbu bobida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Kavkazortidan qochib kelgan turk, arman va gruzin kabi millatlarning qochib kelish sabablari, qochoqlarning soni, mashg‘uloti haqida ma’lumotlar keltirilgan. Birgina 1909-yil Farg‘onada 1162 ta arman, 172 ta Kavkaz millati vakillari, 131 ta forslar istiqomat qilgan. Arman qochoqlarning soni nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilgan⁵³.

Arman va fors qochoqlari shug‘ullangan mashg‘ulotlar ularning orasida mehnat turi va kasbi aniq bo‘lmagan kunbay va ishbay tartibida mardikorlik qilib, kun ko‘rganlari arxiv hujjatlarida keltirilgan. Ko‘pgina arman va forslar politsiya ro‘yxatida turishgan⁵⁴.

Xullas, Rossianing Yevropa qismidan Turkistonga ko‘p sonli aholi vakillari majburan ko‘chib kelgan va ular orasida qonunlar bilan huquqlari cheklangan yahudiylar, ta’qibga uchragan armanlar, boshqa Kavkaz millatlari (gruzin, cherkes, osetin h.k) vakillari, moddiy ahvoli og‘irlashgan forslar qochib kelganlar.

Turkiston qochoqlarning milliy-etnik tarkibi xilma-xil bo‘lib, ular yashab qolish maqsadida turli kasblar bilan shug‘ullanishgan. Peshonasiga jinoyatchi tamg‘asi bosilganlari esa Turkistonda ham o‘z yashash joylarini doimo o‘zgartirib qochib yurganlar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Birinchi jahon urushi asirlari orasida qochoqlik va imperiya hukumatining qochoqlarga munosabati**” deb nomlangan. Faqat turk asirlari musulmon bo‘lganligi tufayli Turkistonga jo‘natilmagan⁵⁵. Ular Turkistonga keyinchalik qochib kelib, bir necha ming kishini tashkil qilishgan⁵⁶.

Harbiy asirlar orasida general, polkovnik, podpolkovnik, mayor kabi harbiy unvondagilardan tortib zabit, kichik zabit, serjant, starshina, oddiy soldat va michmanlar ham bor edi. Harbiy asirlardan ayrimlari muhandis-texniklar,

⁵² O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 29-ro‘yxat, 537 yig‘ma jild, 1, 2-varaqlar, 3, 4-varaqlar, 4-varaqning orqasi, 5,6-varaqlar, 6-varaqning orqasi, 7 varaq, 7-varaqning orqasi, 8-varaq, 9,10-varaqlar, 12,13-varaqlar, 14-varaq, 15-varaq, 16-varaq, 16-varaqning orqa tomoni.

⁵³ O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 28889 yig‘ma jild, 16, 18 varaqlar, I-19-fond, 1 ro‘yxat, 28849 yig‘ma jild, 47, 53 varaqlar. Шодмонова С. Туркистон матбуотда хунар таълими масалалари // Бухоро давлат университети илмий ахбороти, 2009. – №3. – Б. 23. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-1-fond, 17-ro‘yxat, 774 yig‘ma jild, 7,8,9-varaqlar.

⁵⁴ O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-3-fond, 2-ro‘yxat, 1966 yig‘ma jild, 183-varaq, 184-varaqning orqa tomoni, I-1-fond, 17-ro‘yxat, 774 yig‘ma jild, 29-varaqning orqa tomoni, 29-varaq, 29-varaqning orqa tomoni, 36-varaq, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1687 yig‘ma jild, 8-varaq, 8-varaqning orqasi, 1657 yig‘ma jild, 4-varaq, 4-varaqning orqasi.

⁵⁵ O‘zbekiston Milliy Arxivi, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 18 yig‘ma jild, 38,39,40,41,42, 46-varaqlar, I-25-fond, 1-ro‘yxat, 182 yig‘ma jild, 16,17-varaqlar; Шипек А. Военнопленные и их использование в мировой и гражданской войне // Война и революция. – Москва, 1928. – №2. – С. 44-45; Фаффоров Ш.С. Тарих ва тақдир. Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асирнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан; 2006. – Б. 135.

⁵⁶ Рожи Чакирўз. Юрагимга яқин гўшалар (Рустам Шарипов таржимаси // Жаҳон адабиёти; 1997. – №5. – Б. 197-204; Раҳмонкулова З. Биринчи жаҳон уруши ва Туркистон: асир тушган турк аскарлари ҳақида айrim маълумотлар // ЎзМУ хабарлари. 2008. – №2. – Б. 59-61; Ҳайитов Ш.А. Уруш ва муҳожирлик. – Бухоро, 2010. – Б. 24-25; O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 28845 yig‘ma jild, 53-varaq.

quruvchi loyihachilar, harbiy vrach va feldsherlar, qurol-yarog‘ ustalari, fotograf va muzikantlar, xaritashunoslari bo‘lgan⁵⁷.

Harbiy asirlar Turkistonning Toshkent, Samarcand, Skobelev (Farg‘ona), Ashxobod, Qo‘qon, Andijon, Xiva, Buxoro, Chorjo‘y, Patta-Hisor shaharlaridagi tutqunlar lagerlarida saqlangan, ulardan ko‘prik, uy-joy, pochta stansiyalarini qurishda foydalanganlar. Masalan, 1914–1916-yillarda Buxoro temir yo‘li qurilishida 3-4 ming sonli avstriys, nemis, rumin, madyar harbiy asirlari ishlatilgan⁵⁸.

Harbiy asirlardan qurol-yarog‘larni ta’mirlashda, o‘q-dorilar ishlab chiqarishda foydalanilganligi, rus ayg‘oqchilari tomonidan asirlar haqida ma’lumot to‘plaganliklarini arxiv hujjatlari tasdiqlaydi⁵⁹.

Dissertatsiyada o‘nlab harbiy asirlar, ularning qochib ketishga harakat qilgani bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan. Bir qator harbiy asirlar (feldsher, vrach, muzikant, skripkachi) bir qadar erkinlikka qo‘yilib, bu imkoniyatlardan foydalanib, ular qochib ketishga muvaffaq bo‘lgan⁶⁰.

Harbiy asirlardan tegirmom, vino, aroq va pivo zavodlarida ishchi sifatida foydalanishgan. Bunday asirlar o‘zini erkin tutib, kuzatuvchilarsiz yurish, klublarga qatnash imkoniyatlaridan foydalanib qochishga urinishgan. Bu haqda Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi maxfiy ayg‘oqchilari ko‘p ma’lumotlar keltirishgan⁶¹.

1915-yil Turkistondagi qochoqlar soni – 80 ming nafarni tashkil etgan, Polsha bиринчи jahon urushi yillarda Rossiya imperiyasi hududining bir bo‘lagi bo‘lib, 1914–1915-yillarda Turkistonga ko‘p sonli polyaklar ham qochib kelgan. 1914–1916-yillarda Turkistondagi harbiy asirlar soni 150 ming bo‘lib, ayrim Turkiston shaharlarida aholi sonidan harbiy asirlar ko‘p bo‘lgan. Masalan, Skobelov (Farg‘ona) shahrida 7 ming mahalliy fuqaro, 15 ming harbiy asir yashagan⁶².

1916-yil yozida ularni Rossiya markaziy rayonlariga evakuatsiya qilinishi bilan boshlanib, harbiy asirlardan 1917-yilning boshida 42 ming nafari qolgan,

⁵⁷ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-19-fond, 1-ro‘yxat, 28845 yig‘ma jild, 47-varaq, 32702 yig‘ma jild, 18, 19, 20-varaqlar.

⁵⁸ Ахмеджанова З.К. К истории строительства железной дороги в Средней Азии (1880-1917 гг.). – Ташкент: Наука, 1965. – 214 с.; Ахмеджанова З.К. Железнодорожное строительство Средней Азии и Казахстане (конец XIX – нач. XX вв.). – Ташкент: Ураль, 1984. – 127 с.; Ахмеджанова З.К. К истории строительства Бухарской железной дороги (1914-1916 годы) // Общественные науки в Узбекистане; 1962. – №4. – С. 34-35.

⁵⁹ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1648 yig‘ma jild, 8,9,10,21,22-varaqlar, 22-varaqning orqasi, 24,25-varaqlar, 31,33,37-varaqlar, 37-varaqning orqasi, 42, 43-varaqlar, 52,53,54,55-varaqlar, 58,59,60-varaqlar. 60-varaqning orqasi, 62-varaq, 62-varaqning orqasi, 84-varaq, 84-varaqning orqasi, 1655 yig‘ma jild, 5,6,7,8,9-varaqlar, 9-varaqning orqasi, 10,11,12,16,17,27,35,37-varaqlar; 1818 yig‘ma jild, 45-varaq, 45-varaqning orqasi 51-varaq, 51-varaqning orqasi, 80-varaq, 80-varaqning orqasi, 83-varaq. 106-varaq, 106-varaqning orqasi, 107-varaq, 107-varaqning orqasi, 108-varaq, 145-varaq, 145-varaqning orqasi, 1655 yig‘ma jild; 23-varaq, 23-varaqning orqasi, 24, 32, 34, 46, 53, 56,57 varaqlar va ularning orqasi, 74-varaq, 74-varaqning orqasi.

⁶⁰ Ахмеджанова З.К. К истории строительства Бухарской железной дороги (1914-1916 годы) // Общественные науки в Узбекистане; 1962. – №4. – С. 34-35; O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-2-fond, 11-ro‘yxat; 1856 yig‘ma jild, 196-varaq, I-461-fond, 1-ro‘yxat; 1648 yig‘ma jild, 33-varaq, 33-varaqning orqasi, 1655 yig‘ma jild, 6-varaq, 9-varaqning orqasi, 1699 yig‘ma jild, 7, 8-varaqlar.

⁶¹ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 1-ro‘yxat; 1699 yig‘ma jild, 7-varaqning orqasi, 1653 yig‘ma jild, 43-varaq, 52-varaq.

⁶² O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 3-ro‘yxat; 1270 yig‘ma jild, 65-varaq, 66-varaq.

ulardan Rossiya-Avstriya frontida asir olingan qochoqlar 38 ming nafarni tashkil etgan, Nemis-rus frontida asir olingan qochoqlar 3-4 ming nafarni tashkil etgan⁶³.

Tarixiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asirlarning har to'rttadan uchtasida qochib ketish maqsadi va ruhiyati yetakchilik qilgan. "Chorjo'y shahar harbiy garnizonida 800 nafar harbiy asirlar istiqomat qilgan. Ular Eronga qochib ketishga urinishmoqda, shunday qochoqlardan 16 nafari ushlandi, 2 tasi chegarada otib o'ldirildi. Ko'p o'tmay garnizondan yana 20 ta asir qochdi, ulardan 13 nafari ushlandi, 7 nafari qumliklar orasiga kirib ketdi" – deb ma'lumot beriladi arxiv manbasida⁶⁴.

Ikkinci ma'lumotda Yangi Buxoroda 600 nafar qochoqlar ro'yxatga olingani, ular orasida harbiy asirlar ham bo'lib, qochoqlarda Eron va Afg'onistonga olib boruvchi yo'llar xaritasi mavjudligi qayd etilgan.

Dissertatsiyada Turkiston shaharlarida afg'on va fors fuqarolari harbiy asirlarga Afg'oniston va Eron xaritalarini sotib pul ishlayotganligi, bir qator asirlar Mashhad (Eron) orqali o'z yurtiga yetib olganligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirildi. Avstriys va nemis asirlari ikki yo'nalish orqali Eron va Afg'onistondan o'tib, o'z yurtlariga qochib ketishni rejalshtirishgan⁶⁵.

Tadqiqotda asir qochoqlarni qo'llab-quvvatlagan Afg'oniston va Eron fuqarolaridan G'ulom Haydar, Xoja Ahmad kabilar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Bu shaxslar asirlarni bir muddat shaxsiy kvartira va korxonalarda, do'konlarning podvallarida yashirishgan va qulay vaziyat paydo bo'lishi bilan ularni qochirishgan⁶⁶. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, harbiy asirlar Buxoro amirligi hududiga ham qochib o'tishgan. Ular Buxoro amiri qo'shbegisidan o'z vatanlariga qaytarishga yordam berishni so'rab iltimosnomalar, arizalar yozishgan. Hujjatlardan birida Buxoro amirligiga qochib o'tgan 4 nafar avstriyalik, nemis, venger asirlaridan amir nomiga yozilgan ariza saqlangan. Ikkinci bir hujjatda 2 nafar avstriys harbiy asiri Nurota begi Abdurayim To'qsabo huzuriga boshpana izlab borganligi qayd qilingan⁶⁷.

Dissertatsiyada harbiy asirlardan o'z armiyasini kuchaytirish maqsadida Afg'oniston va Eron hukmdorlari foydalanishga uringanligi ularning qochishidan manfaatdor ekanligini arxiv hujjatlari tasdiqlaydi⁶⁸. Umuman, Turkiston asirlarining taqdiri turlicha kechib, ularning oz sonli a'zolari o'z vataniga qaytib borishga muvaffaq bo'ldilar, anchasi chegarachi harbiylar tomonidan otib tashlandi. Turkistonda yashab qolganlari qizil armiya komandirlari sifatida 1917–1924-yillardagi vatanparvarlar bilan harbiy to'qnashuvda ishtirot qildi.

⁶³ Бахтурина А.Ю. Окраины Российской империи государственное управления и национальная политика в годы первой мировой войны (1914-1917 гг.). – Москва: РОССПЭН; 2004. –392 с.

⁶⁴ O'zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 1-ro'yxat, 1698 yig'ma jild, 84-varaq, 84-varaqning orqasi.

⁶⁵ O'zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 1-ro'yxat, 1699 yig'ma jild, 7-varaq., 8-varaq, 8-varaqning orqasi, 1665 yig'ma jild, 9-varaq.

⁶⁶ O'zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 1-ro'yxat, 1655 yig'ma jild, 15,16-varaqlar, 1818 yig'ma jild, 125-varaq, 1649 yig'ma jild, 93-varaq, 1650 yig'ma jild, 35-varaq, 1655 yig'ma jild, 37-varaq.

⁶⁷ O'zbekiston Milliy Arxiv. I-126-fond, 1-ro'yxat, 144 yig'ma jild, 41-varaq, 1449 yig'ma jild, 50, 51,52,53-varaqlar.

⁶⁸ O'zbekiston Milliy Arxiv. I-461-fond, 1-ro'yxat, 1368 yig'ma jild, 16-varaq, 16-varaqning orqasi, 17-varaq, 17-varaqning orqasi, 18-varaq, 18-varaqning orqasi, 1965 yig'ma jild, 28-varaq, 28-varaqning orqasi, 1655 yig'ma jild, 27-varaq.

Dissertatsiyaning ushbu bobida Rossiya imperiyasi harbiy xizmatidan bo‘yin tov lash, frontlardagi janglardan qochish, og‘ir moddiy tur mush, dehqonlar o‘rtasida yersizlik, majburiyat va soliqlar yuki va qo‘zg‘olonlar oqibatida Turkistonga qochib kelganlarga hukumat homiyligi masalasi ham tahlil etildi. 1915-yilda Turkistonga 80 ming sonli qochoqlar kelganligi, ularning 70.921 tasi nazorat ostiga olinganligi ko‘rsatilgan. Qochoqlarni o‘z joylariga evakuatsiya qilinishi tufayli 1916-yil 1-iyun holatida 30 ming qochoq Turkistonda yashab qolgan⁶⁹.

Qochoqlarning hududlar bo‘yicha soni bilan bog‘liq ma’lumotlar, ular har bir oyda ro‘yxatga olinganligi, qochoqlarning ijtimoiy tarkibi va oilaviy holati, bir sutkada qochoqlar uchun sarflanadigan pul miqdori, ularni davolashga, qochoqlar yashaydigan kazarmalarni dezinfeksiyalashga, binolarni yoritish va isitishga, ularga bosh, oyoq, ustki kiyim buyurtma qilish bilan bog‘liq xarajatlar aniq hisob-kitob qilinganligi bilan bog‘liq dalillar dissertatsiyada keltirilgan. Jumladan, kasalxonada 1 koyka xarajati 30 rubl, go‘sht uchun 8 rubl 10 kop., qand-shakar uchun 3 rubl 10 kop xarajat qilingan holda hammomga 4 rubl 90 kop.,sovunga 20 rubl ajratilgan⁷⁰. Hatto, bir qochoqqa oziq-ovqat xarajati 23 kopeyekdan 28 kopeyekgacha belgilanib, choyshablar uchun xarajat 19 kopni tashkil qilgan. Qochoqlarni so‘nggi manziliga kuzatish bilan bog‘liq buyruq, sirkulyar, maxsus xatlar arxiv manbalarida saqlangan⁷¹.

Dissertatsiyada har bir qochoqqa ajratilgan bir kunlik non, go‘sht, krupa, choy, qand, issiq ovqat, o‘tin summasi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirildi⁷². O‘sha davr narx-navosi hisobi bilan barcha sarf-xarajatlarni imkon qadar qisqartirishga harakat qilingan. Arxiv manbalarining tasdiqlashicha, Rossiya imperiya hukumati qochoqlar masalasini hal qila olmay, boshi berk ko‘chaga kirganligi isbotlandi⁷³. Xullas, 1917-yil fevralga qadar, Turkistondagi 57-60 ming nafar qochoqni joylashtirish, oziq-ovqat bilan ta’minlash, ular ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularni o‘z yerlariga qaytarish bilan bog‘liq muammolar hal etilmadi.

XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston qochoqlari tarixini o‘rganish asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi.

1. Qochoqlar tarixi insoniyat sivilizatsiyasining ilk davlatchilik bosqichlariga borib taqaladi. Kishilar hukumatlar tomonidan olib borilgan zo‘ravonlik siyosati, soliq zulmi, turli epidemiyalar, ocharchilik, milliy-etnik nizo, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi raqobat kabi omillar tufayli o‘z tinchlik va osoyishtaliklari hamda

⁶⁹ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-1-fond, 27-ro‘yxat, 300 yig‘ma jild, 1, 2, 3-varaqlar.

⁷⁰ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-3-fond, 1-ro‘yxat, 845 yig‘ma jild, 154,155-varaqlar, 156-varaq, 156-varaqning orqasi.

⁷¹ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-3-fond, 11-ro‘yxat, 26656 yig‘ma jild, 72,73-varaqlar, O‘MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 845 yig‘ma jild, 200-varaq, 200-varaqning orqasi, 17-fond, 2-ro‘yxat, 9656 yig‘ma jild, 106-varaq, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 845 yig‘ma jild, 206-varaq, 206-varaqning orqasi, 207-varaq, 207-varaqning orqasi.

⁷² O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-3-fond, 1-ro‘yxat, 845 yig‘ma jild, 32-varaq, 33-varaqning orqasi, 33-varaq, 33-varaqning orqasi, 34-varaq.

⁷³ O‘zbekiston Milliy Arxiv. I-3-fond, 1-ro‘yxat, 846 yig‘ma jild, 63-varaq, 63-varaqning orqasi, 66-varaq, 66-varaqning orqasi, 945 yig‘ma jild, 69-varaq, 69-varaqning orqasi.

jonlarini saqlab qolish maqsadida bir mamlakat hududidan ikkinchi davlat hududiga yoxud o‘z yurtlarining ovloq joylari bo‘ylab qochib yuriganlar. Qochoqlar sonining ko‘payishi inqiloblar, bosqinlar va tabiiy ofatlar kabi ijtimoiy-siyosiy, geografik omillar tufayli keskin oshib turgan yoxud ommaviy tus olgan. Shunday qilib, qochoqlik tarixiy jarayon sifatida uzoq tarixga ega. Qutblashgan, notekis rivojlangan davlatlar yonma-yon yashayotgan, ayrim mamlakatlardagi keskin milliy-etnik jarayonlar, ijtimoiy ziddiyatlar va tabiiy omillar ortidan hozirgi davrda qochoqlik avj olmoqda. Bu esa barqaror va tinch rivojlanish yo‘lini tanlagan davlatlar uchun bir qator muammolarni yuzaga keltirayotgani tashvishli holatdir. Xalqaro meyoriy-huquq doirasida qochoqlarning manfaatlari himoya qilingan bo‘lsa-da, qochoqlarni joylashtirish, ularni o‘z vatanlariga qaytarish hukumatlarga cheksiz muammolar tug‘dirmoqda.

2. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonga hukmronlik masalasida Angliya va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi ziddiyatlar keskin tus olib, Rossiya qo‘sishinlarining mintaqani bosib olishga qaratilgan amaliy harbiy harakatlari kuchaydi. 1850-yillarda Rossiya va xonliklar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro tenglik siyosati, do‘stona va diplomatik aloqalarga chek qo‘yilgandi. Rus harbiy qismlarining Turkiston bo‘ylab qurolli bosqinlari oqibatida tinch ijodiy mehnat va o‘z an‘anaviy xo‘jaligi asosida kun ko‘rib turgan aholini sarosimaga solgandi. Birin-ketin shaharlarning bo‘ysundirilishi bilan aholining bir qismi ovloq, chekka hududlarga qochib borib yashirinishiga sabab bo‘lgandi. Shuningdek, noteng janglarda yengilgan vatanparvar kuchlar va ularning yo‘lboshchilari qo‘sni Afg‘oniston, Sharqiy Turkiston (Xitoy), Eron, Hindistonga qochgandi. Imperiya mustamlakachilariga qarshi kurashdan yengilgandan so‘ng Yoqubbek, Abdumalik Katta To‘ra, Kenjabe (Qurbanjon dodxohning o‘g‘li) kabilar bilan chetga aholining ancha qismi qochib ketgan. Vahimaga tushgan oddiy aholining bir qismi o‘z oilasi bilan musofirchilikda yashashga majbur bo‘lgan.

3. Rossiya imperiyasi Turkistonni istilo qilganidan so‘ng, xalq bosqinchilarning mustamlaka va soliq siyosatini, harbiy-ma’muriy boshqaruvin qabul qila olmadidi. Natijada mustamlakachilik siyosati yillarida muttasil zulmga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib, qo‘zg‘olonlar shafqatsizlik bilan bostirilganidan so‘ng, ularda ishtirok etgan turli aholi qatlamlari o‘lim va jazodan qochib mamlakat ichidagi chekka joylarga va xorijga qarab qochdilar. Qochoqlar o‘z uy-joylari, mol-mulkari, chorva va parrandalarini tashlab, bola-chaqalari bilan tog‘ oralariga, cho‘lu-biyobonlarga qochib borib yashirindi. Ayniqsa, qochoqlik 1898-yildagi Andijon qo‘zg‘oloni, 1916-yildagi mardikorlikka olish bilan bog‘liq qo‘zg‘olonlar davrida ommaviy tus olgan. Bu qo‘zg‘olonlar davrida qo‘sni davlat hisoblangan Xitoy (Sharqiy Turkiston), Afg‘onistonga qochib o‘tganlar ko‘p sonli edi. Qochoqlarning bir qismi yo‘lda chorva mollari bilan tabiiy ofat va qaroqchilar hujumiga uchradilar. Xorijga qochib o‘tganlarning yana bir qismi o‘zga yurtlarda kamsitilgan, xo‘rlangan holatda yashashga majbur bo‘ldilar. Dissertatsiyada ichki va tashqi qochoqlar haqida dalillar orqali ma’lumotlar keltirildi.

4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonga Rossiya imperiyasi markaziy guberniyalaridan aholini ko‘chirish siyosati avj oldirilgan. XIX asr 90-yillari va XX asrning dastlabki o‘n yilligida Rossiya aholisining Turkistonga davlat rejasি

asosida ko‘chirilganlar bilan birga o‘z ixtiyori bilan ko‘chib kelganlar, bir qator qochib kelganlar ham bor edi. Qochoq oilalari o‘lkaga kirib, shunday ham murakkab bo‘lib turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kuchaytirib yuborgan. Bu yillarda Turkiston general-gubernatorligi viloyatlariga, Buxoro amirligi rus manzilgohlari (Yangi Buxoro, Patta-Hisor, Chorjo‘y va h.k.)ga yuzlab yahudiy, Kavkaz millatlari (arman, gruzin, chechen, osetin va h.k.), fors millati vakillari qochib keldilar. Ular milliy nizo, hukumat tazyiqi, huquqlarning cheklanishi, soliq to‘lash majburiyatidan qutulish kabi ko‘pdan-ko‘p omillar tufayli Turkiston shaharlariga qochib kelgan edilar. Rossiya turli rayonlari hamda Kavkazdan qochib kelganlarning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo‘lib, ular orasida dindor, savdogar, dehqon, ziyoli (o‘qituvchi, vrach, muhandis) tabaqasi vakillari bor edi. Albatta, qochoqlar safida jinoyatchi, imperiya qonuni bilan jinoiy javobgarlikka tortilganlar ham mavjud bo‘lgan.

5. Rossiya imperiyasi bilan Xitoy hukumati o‘rtasida 1880-yillarda chegara masalasida shartnomalar imzolanishi, ikki davlat chegara chiziqlarining qat’iy o‘tkazilishi (1880-yilgi G‘ulja shartnomasi) bilan Yettisuv oblastida istiqomat qiluvchi qirg‘iz, uyg‘ur, dunganlarning erkin ko‘chib yurishlariga chek qo‘ydi. Oqibatda bir mamlakat hududidan ikkinchisi hududiga qochib o‘tish jarayoni kuchaydi. Rossiya fuqaroligini yohud Xitoy fuqaroligini qabul qilish masalasi ham qochoqlik jarayonini to‘xtata olmadi. Hukumatlarning qochoqlikni cheklash, chegaralarni mustahkamlash bilan bog‘liq qat’iy chora-tadbirlari kutilgan natijani bermadi. Uzoq masofalarga cho‘zilgan chekka davlat chegaralari bo‘ylab qochoqlik to‘lqinlari yuz berib turdi.

6. XIX asr 80-yillari va XX asr boshlarida Xitoy markaziy hukumati (Yoqubbekning Yettishahar davlati 1877-yilda qulaganidan so‘ng) Sharqiy Turkiston (Xitoyning Shinjon uyg‘ur muxtor rayoni, 1884-yildan boshlab)dagи turkiy xalqlar hisoblangan uyg‘ur, dungan, taranchilarga nisbatan qatag‘on siyosatini yuritgan. Oxir-oqibatda Urumchi, G‘ulja, Qoshg‘ar, Kuchar, Ko‘rla uyg‘ur va dunganlari Farg‘ona vodiysiga qochib o‘tdilar. Qochib o‘tganlar soni 57 mingdan 100 mingga qadar ekanligi manbalarda qayd etilgan. Ular Sharqiy Turkistondan yangi ekin navlari, ovqatlarning yangi turlari (manti, lag‘mon) kabilarni olib kelgishgan bo‘lsa-da, demografik jarayonlarni, ijtimoiy-iqtisodiy holatni taranglashtirdi va mahalliy hukumatlarga muammolar tug‘dirdi.

7. Turkiston mintaqasida, ayniqsa, 1,5 ming km ga cho‘zilgan Afg‘oniston-Kaspiyorti, 1000 km. lik rus-afg‘on, Buxoro-afg‘on chegarasi orqali afg‘on, hind, fors fuqarolarining turli maqsadlarda kirib kelishi kuchaydi. Afg‘on, hind, forslar mintaqaga mehnat migranti, madrasida ta’lim olish, savdo-sotiq qilish, hajga jo‘nab ketish kabi turli omillar tufayli kirib kelgan bo‘lsa-da, ular orasida qochoqlar ham anchagina foizni tashkil etardi. Afg‘on qochoqlari ayniqsa, ko‘p sonli bo‘lib, ular Turkiston viloyatlari va Buxoro amirligi hududlari bo‘ylab ko‘chib yurishgan.

8. Qochoqlik jarayoni Turkistonga ayniqsa, Birinchi jahon urushi yillarda (1914–1917 yy) keng tus olgan. Qochoqlar soni bu davrda butun imperiyada 200 mingdan ortiq bo‘lib, shuning 100 mingi (ayrim ma’lumotlarda 57-60 ming)

Turkistonda bo‘lgan qochoqlar, asosan, hukumatning urushga safarbar qilish siyosatidan qochib, Turkistonga kelgan edi. Bu yillarda Turkistonda saqlangan Birinchi jahon urushi asirlari (nemis, madyar, rumin, avstriys, italyan, yapon va h.k.) orasida qochish avj olganini arxiv hujjatlari tasdiqlaydi. Asir qochoqlarning soni, millati, Eron va Afg‘oniston yo‘nalishlari bilan bog‘liq ma’lumotlar hujjatlar va arxiv manbalarida saqlangan. Asir qochoqlarning taqdirlari turlicha kechgan. Ularning ozchiligi Eron va Afg‘oniston, Hindiston va Xitoy orqali o‘z vatanlariga yetib borgan. Bir qismi chegaradagi otishmada halok bo‘lganlar, ko‘pchiliklari ushlab olinib tutqunlar lageriga olib kelingan. Asir qochoqlar qat’iy rejim asosida saqlanib, ulardan ko‘prik, temir yo‘l, kazarmalar qurishda foydalanilgan.

9. Rossiya imperiyasi hukumati Turkiston qochoqlariga, albatta, befarq bo‘lmadi. Turkistonga qochib kelgan rus fuqarolarini ro‘yxatga olish, ular azaliy yashagan joylardagi hukumatlar bilan aloqa o‘rnatish, qochoqlarni boshpana va oziq-ovqat bilan ta’minalash, tibbiy yordam ko‘rsatish, sanitariya-gigiyena sharoitini yaratish, boshpana bo‘ladigan kazarmalar qurish, qochoqlarni Vatanga qaytarish uchun tekin poyezd yo‘l chiptalari tashkil qilish kabilar hukumat doirasida ko‘rildi. Bu masalalarda Turkiston general-gubernatori, gubernatorlik devonxonasi, viloyat, uyezd boshliqlari hamda xazinadan mablag‘ jalb etildi. Arxiv manbalariga ko‘ra har bir qochoqqa yoshi va toifasiga qarab bir kunda beriladigan oziq-ovqat (taomnoma) ham ishlab chiqilgan. Hammom, qochoqlar yotoqxonalarini dezinfeksiya qilish masalalari muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlarning bayonnomalari arxiv hujjatlaridan o‘rin olgan. Qancha zaruriy tadbirlar qo‘llanilmasin, mablag‘ sarflanmasin hukumat imperianing oxirgi 1917-yilida ham qochoqlar masalasini hal qila olmagandi.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda qochoqlar tarixi va ularning tarixiy taqdirlariga qaratilgan fundamental monografiya yaratish.
2. Turkiston qochoqlari tarixiga oid tadqiqotda to‘plangan manbaviy ma’lumotlardan O‘zbekiston tarixining Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrini o‘rganishda, o‘quv qo‘llanma, darsliklar yangi avlodini yozishda foydalanish.
3. “Qochoqlar muammosi: tarix va hozirgi zamон” mavzusida MDH va xorij olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish.
4. Turkiston qochoqlari: XIX asr oxiri-XX asr boshlarida tarixiy materiallar va ma’lumotlarni o‘zida jamlagan internet elektron veb-saytini yaratish.
5. Tadqiqotda bayon etilgan fikr-mulohazalar, dalil va raqamlardan foydalanib fakultativ mashg‘ulotlar, ma’ruza, seminar-treninglar tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

САИДОВ ФАРРУХ СОИБОВИЧ

**БЕЖЕНЦЫ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ
РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
(конец XIX – начало XX века)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/Tar1241.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на веб-странице Информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хайтов Шадмон Ахмадович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Гаффаров Шакир Сафарович
доктор исторических наук, профессор

Холмуминов Хусан Эшмуминович
доктор исторических наук, доцент

Ведущая организация:

Наванинский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней под номером PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 при Каршинском государственном университете, в _____ часов «_____» _____ 2026 года. (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04; факс: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz) Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирован под номером _____.). (Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации распространен «_____» _____ 2025 года
(протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2025 года).

Б.Дж. Эшов

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.и.н., профессор

Н.Н. Раджабова

Секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
к.и.н., доцент

Ю.А. Эргашева

Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению учёных степеней,
д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время в мире под влиянием тенденций глобализации уделяется большое внимание историческим корням межнациональных, межгосударственных отношений, изучению взаимодействия народов в прошлом и вопросам взаимной культурной, социально-экономической жизни, межкультурного влияния сопредельных народов, проживающих рядом. Тем не менее, тот факт что каждый народ и нация имеют свой путь развития, свою самобытность, веками сохраняя условия жизни, обычаи и традиции, и в условиях сегодняшней глобализации все более актуальными становятся понятия обращения к прошлому, самосознанию.

Одной из самых серьезных проблем современности, возникающих в странах мира, является вопрос беженцев и других вынужденно перемещенных переселенцев. Сегодня число вынужденных переселенцев и беженцев во всем мире превысило 80 миллионов. В этом году исполняется 70 лет со дня принятия «Конвенции о статусе беженцев». На протяжении последних лет все страны мира проводят научно-практические исследования ведущих мировых научно-исследовательских институтов по решению проблемы обеспечения прав беженцев. В результате получен ряд данных о том что, люди покидают свои родные страны, чтобы избежать войн, стихийных бедствий, культурного и политического угнетения. Но такие вопросы, как история беженцев в Туркестанском крае в период правления Российской империи, их национально-этнический состав, социальный статус, еще ждут своего решения.

Приоритетным остается изучение и беспристрастный анализ исторических процессов, протекавших в Новом Узбекистане на разных этапах. «В Узбекистане на сегодняшний день отменены такие пережитки прошлого, как выездные визы, ограничивающие свободное передвижение людей. Активизируются открытые диалоги с национальными и международными неправительственными организациями по вопросам защиты прав человека»¹. В ответ на призыв Организации Объединенных Наций о сокращении числа лиц без гражданства, в этом же году свыше 50 тысяч наших соотечественников получили гражданство Узбекистана. В нашей стране также резко улучшилась ситуация религиозной свободы нации. Дальнейшее укрепление межнационального согласия и межрелигиозной толерантности является для нас постоянной важной задачей. Тот факт, что в различных точках мира сохраняются беспорядки, усиливаются конфликты и насилие, экологические катастрофы и другие современные угрозы для населения усугубляют глобальные проблемы нищеты и бедности. Эти проблемы становятся особенно острыми в условиях пандемии. Президент нашей страны отмечает что, голос нищеты,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>. Murojaat vaqt: 2023-yil 15-avgust.

приобретающий все более тревожный тон, должен беспокоить все мировое сообщество, всех нас².

Данная исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-2993 «Об организации деятельности Комитета по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами при Кабинете Министров Республики Узбекистан» от 23 мая 2017 года, №ПП-3839 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы внешней трудовой миграции Республики Узбекистан» от 5 июля 2018 года, №ПП-4829 «О мерах по внедрению системы безопасной, упорядоченной и легальной трудовой миграции» от 15 сентября 2020 года, Указе №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года и других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Исследования, работы и статьи по вопросам истории беженцев в Туркестанском крае можно разделить на четыре группы:

1. Опубликованные работы в годы колонизации Российской империей;
2. Публикации, относящиеся к советскому периоду;
3. Исследования, написанные в годы независимости;
4. Работы, опубликованные за рубежом.

В первую группу можно включить работы А. Миддендорфа, А. Иванова, В.И. Масальского, Л.А. Исаевой, С.М. Граменицкого, А.И. Шахназарова, Н.П. Острумова, В.И. Кушелевского, К.П. Кауфмана, Н.П. Остроумова, Н. Турчанинова, А.А. Кауфмана, К.К. Абазы, М.А. Терентьева, А. Глебова, А.Н. Комарова, В.П. Вошинина, Е.Е. Абаза, Е.А. Яшнова³. По мере изучения

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблейсининг 75-сессиясида сўзлаган нутки // Янги Ўзбекистон. 2020 йил 23-сентябрь.

